

## ABDULLA QAHHORNING “NURLI CHO`QQILAR” HIKOYASIDAGI FE`LLI IBORALARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Isoqjanov Sherzod Bahodir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

mamalakatmamlakathon@gmail.com

### Anotatsiya

Ushbu maqolada nutqimizda uchraydigan ko'plab frazeologiyalar, ularning tasnifi hamda Abdulla Qahhorning “Nurli cho'qqilar” asaridagi frazeologik birliklar haqida so'z yuritiladi. Frazeologizmlarning semantik tasnifi, ularning hayotimizdagi va nutqimizdagi tadbiri xususida so'z yuritildi. “Nurli cho'qqilar” asarida qo'llanilgan fe'lli iboralarning omonimligi, sinonimligi borasiga fikr yuritildi.

**Kalit so'zlar:** frazeologiya, frazeologik omonimlar, frazeologik antonimlar, frazeologik sinonimlar, semantik tasnif.

Olimlarning lisoniy manzarasida yoki insonning til shuurida so'zlar bilan bir qatorda tarkibi jihatidan barqaror bo'lgan va nutqda tayyor holda aks ettiriladigan frazeologik birliklar yoki frazeologizmlar mavjud. U yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko'z ilg'amas rang – barangligini aks ettiradi. Frazeologiya nima degan savolga to'xtaladigan bo'lsak, bu biror qismi yoki butun holda ko'chma ma'noda bo'lgani uchun bo'yoqdorlikka boy bo'lgan turg'un iboralarga aytiladi. Turg'un iborlar quyidagi belgilarga ega. 1) qo'llanaverib bo'linmaydigan bir butun holga kelib qolgan bo'ladi va bir umumiy tushunchani ifodalaydi, ma'no jihatidan bitta so'zga teng keladi. Masalan: bosh qo'shmoq ( ibora ), aralshmoq ( so'z ), bosh qashmoq ( ibora ), o'ylamoq ( so'z ), zeb bermoq ( ibora ), bezanmoq ( so'z ), tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq ( ibora ), umiqsizlanmoq ( so'z ), yo'lga tushmoq ( ibora ), jo'namoq (so'z ) kabi. 2) Ibora tarkibida kamida ikkita so'z qatnashadi. Masalan: aqli kirmoq, bag'ri tosh, qolmoq va boshqalar. 3) Ibora ma'no va grammatik jihatdan biror so'z turkumiga oid bo'lgan uchun bir butun holda bitta so'roqqa javob beradi. Masalan, bizdan battarsiz bag'ri qon ekansiz ( kesim ). Gulnora daqqiyunidan qolgan ( aniqlovch ) kovushini kiyib, chirik paranjiga o'ralib, Yo'lchi bilan jo'nadi. 4) Ibora o'z tuzilishi hamda tarkibidagi so'zlarning joylashish tartibga ko'ra turg'un bo'ladi. Masalan, sichqonining ini ming tanga bo'ldi , sirkasi suv ko'tarmaydi , tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, yuragi orqasiga ketdi iboralari ming tanga bo'ldi sichqonining ini, suv sirkani ko'tarmaydi qo'ltig'idan tarvuzi tushdi, oqasiga yuragi tortib ketdi shaklida almashtirib qo'llansa iboradan chiqib ma'nosi butunlay o'zgarib ketadi va hatto gapga aylanib qoladi. Turg'un iboralar tarkibidagi so'zlarning o'zaro birikish darajasi va iboralar tarkibidagi so'zlarning o'zaro birikish darajasi va iboralar tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolarning o'zaro birikish darajasi va iboralar tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolarning munosabati turlichadir. Shunga ko'ra uch turga

bo'linadi : 1) frazeologik qo'shilma, 2) frazeologik butunlik , 3) frazeologik chatishma.

1. Frazeologik qo'shilma – ma'nosi qo'shilma tarkibidagi so'zlarnig o'z va ko'chma ma'nolaridan kelib chiqadigan turg'un iboralarga aytiladi. Masalan, burni ko'tarilmoq ( burni o'z ma'nosida, ko'tariladi ko'chma ma'noda ), boshini qovushtirmoq ( boshi- o'z ma'nosida , qovushtirmoq ko'chma ma'noda ). Frazeologik qo'shilma tarkibidagi so'zlar grammatik birikish usuli jihatidan odatdagi so'z birikmalaridan farq qilmaydi. Masalan, nafasi ichiga tushib ketdi, iborasini shakl jihatidan gap bo'laklariga ( ega-kesim) ajratish mumkindek tuyulsa ham, lekin ibora tarkibidagi so'zlar orasida sintaktik aloqa o'zgarmaydi, shu sababli bu ibora “ butunlay qo'rqib ketdi ” ma'nosini ifodalaydi va gapda bir sintaktik vazifani bajaradi.

2. Frazeologik butunlik. Tarkibidagi so'zlar nutq ma'nolaridan kelib chiqadigan asl ma'noda tashqari , butun holda ko'chma ma'noda ishlatiladigan turg'un iboralar frazeologik birlashma deyiladi. Masalan, to'ydan oldin nog'ora chalmoq, yeng shimarmoq, og'zi qulog'iga yetdi kabi. Bunda frazeologizimlarning umumiy ma'nosi qismlarning xususiy ma'nolari bilan uyg'unlikni hosil qiladi. Umumiy ma'no qismlarning xususiy ma'nolariga asoslanadi. Masalan: “ bo'zchining mokisiday “ iborasi serqatnov tushunchalarni ifodalaydi. Frazeologik butunlikning quyidagi belgilar bor: 1) Iboraning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan izohlanadi. Masalan, yaxshi ishtaha haqida ishtahasi ochildi, deyilsa ochko'zlikka nisbatan frazeologik butunlik bo'ladi. 2) Iboraning ma'nosi butun holda ko'chma bo'ladi: podadan oldin chang chiqarmoq, yulduzni benarvon urmmoq, jag'i ochilmoq . 3) Ibora tarkibidagi so'zlar o'zaro jonli grammatik aloqda bo'lsa ham, ular sintaktik jihatidan erkin bo'lmaydi. Masalan: ilonning yog'ini yalagan iborasi erkin aniqlovchi , to'ldiruvchi yoki boshqa bo'laklarga ajratilmaydi, balki birikma holda kesim bo'lib keladi.

3. Frazeologik chatishmalar. Iboralarning umumiy ma'nosi bilan uni tashkil etgan qismlarning xususiy ma'nolari o'tasida bog'liqlik bo'lmaydi. Ko'pincha ziddiyat mavjud bo'ladi. Masalan, oyog'ini oq'liga olmoq iborasi utun holda ko'chma ma'noni “ shoshilish “ ma'nosini ifodalaydi, ammo bu ma'no ibora tarkibidagi oyog', qo'li olmoq so'zlarining na asl, na ko'chma ma'nolari bilan bog'liq emas. Misollar: Hoji o'pkaksini qo'liqlab xonaga kirib keldi. Akam achchig'iidan to'nini tesjari kiyib oldi. Frazeologizmlar shakl ma'no munosabatiga ko'ra quyidagi turlargabo'linadi: 1) Frazeologik omonimlar. Bunga turli ma'no ifodalovchi shakldosh iboralar kiradi. Masalan: og'ziga olmadi ( yemadi ), og'ziga olmadi ( gapirmadi ). 2) Frazeologik sinonimlarga ma'nodosh lekin shakli boshqa iboralar kiradi. Masalan, terisiga sig'madi – boshi ko'kka yetdi ( suyundi ). 3) Frazeologik antonimlar. O'zaro qarama – qarshi ma'no ifodalovchi iboralar kiradi. Masalan, dimog'i chog' – kayfiyati buzuq, ishi o'ngidan kelmoq – havsalasi pir bo'lmoq. Turg'un iboralar tarkibidagi so'zlarning sintaktik modeliga ko'ra ikki xil bo'ladi. 1) So'z birikmasi modelida. Bunday turg'un birikmalar tarkibidagi so'zlar ikkitadan tuzilgan bo'ladi. Masalan, tili qisq , boshini aylantirmoq , oq ko'ngil, qo'li egri. 2) Gap modelida. Bunday iboralar tarkibidagi so'zlar miqdori ikki va undan ortiq bo'ladi hamda bir butun holda hukum ifodalash xususiyatiga yaqin turadi. Masalan, qosh qo'yaman

deb ko`z chiqarmoq, arpasini xom o`rmoq, sirkasi suv ko`tarmaydi. Bundan tashqari turg`un iboralar qaysi turkumga mansubligiga bir necha turlarga bo`linadi: 1) Fe`l frazeologizimlar – boshini aylantirmoq, aravani quruq olib qochmoq, hafsalasi pir bo`lmoq. 2) Ot frazeologizimlar – aql chirog`i, vatan ishq. 3) Sifat frazeologizimlar - sho`r peshona, beti qalin, qo`li yupqa, ko`ngli yumshoq.

Frazeologizimlarning semantik tasnifi. Turg`un ibora semantik jihatdan turlicha ma`nolarni ifodalaydi: 1) Holat. Bunday iboralarda kishining ruhiy holati ifodalanadi. Masalan: kayfiyati uchib ketdi, og`zining tanobi qochdi, bo`yi ko`kka yetdi. 2) Harakat. Bundan jismoniy ta`sir, harakat va boshqa ma`nolar ifodalanadi. Masalan, yuragi qinidan chiqib ketmoq, ustun bo`lmoq. 3) Belgi. Iborada kishining jismoniy va ruhiy sifati ifodalanadi. Masalan: qari tulki, burganing ko`zini ko`rgan, qildan qiyiq qidirmo. 4) Miqdor. Iborada narsa buyumning miqdor belgisini ifodalaydi. Masan: bir etak bola, xamir uchidan patir, sizdan ugina bizdan bugina, ming qo`shchiga bir boshchi.

Abdulla Qahhorning “ Nurli cho`qqilar “ hikoyasida qo`llangan fe`l iboralarga to`xtaladigan bo`lsak ayrim fe`l iboralarning ta`sirchanligi, obrazlilik kuchli ifodalangan. Masalan, 1) Uning ota – onasi avvaliga qarg`ab , keyin yig`lab butun lolazorni, butun qisloqni taka – taka qildi. Ushbu gapdagi taka – taka qildi fe`l iborasi “qidirdi, izladi” ma`nosida qo`llangan lekin bu o`zbek tili frazeologik lug`atida berilmagan. 2) Maktab ma`muriyati bulardan ham ko`proq jon kuydirdi – jamoa ijroqo`miga aytib butun qishloqni oyyoqqa turg`izdi. Ushbu gapda ham qo`llangan fe`l iboralar jon kuydirdi “qayg`urdi” ma`nosida, oyyoqqa turg`izdi iborasi “chaqirdi” ma`nosida qo`llangan ammo bu iboralarni ham frazeologik lug`atlarda ma`nosi berilmagan. 3) Zuhri qidirib o`n birinchi aloqa bo`limiga qarashlik hamma xonadonga bir – bir bosh tiqibdi. Ushbu gapdagi bosh tiqmoq iborasi frazeologik lug`atda “gavdasi tashqarida qolib boshini tiqan holda qarash” ma`nosida berilgan. 4) Zuhra yuzi shuvut emas, xotinlarning ko`ngil so`rashini ham , bunga javoban “ko`nglimni ko`targanlarning uchun rahmat”. Ushbu gapda ko`ngil ko`tarmoq iborasi frazeologik lug`atda “ruhlantirmoq” ma`nosida keltirilgan. 5) Lekin erim meni yaxshi ko`rar edi. Ushbu gapda ham yaxshi ko`rardi iborasi frazeologik lug`atda “sevmok, hurmat qilmoq” ma`nosida berilgan. 6) To`g`ri, lekin dadam dunyodan o`tib boryayotibdi, sen dunyoga endi qadam qo`yayotibsan! Ushbu gapda qo`llangan qadam qo`ymoq iborasi “ma`nosida qo`llangan lekin bu iborani ham lug`atlarda berilmagan. 7) “Eridan chiqqanim Fotima aytib qo`yadi”, degan o`yda otasiga ro`pora bo`lgani yuzi chidamadimi. Ushbu gapdagi yuzi chidamadi fel iborasi frazeologik lug`atda “andisha qildi” ma`nosida keltirilgan. 8) Bu orada Fotima ishga sho`ng`ib ketdi. Ushbu gapdagi sho`ng`ib ketdi fel iborasi frazeologik lug`atda “butunlay berilib ketdi” ma`nosida keltirilgan. 9) Samijon eshikda qolib, sartaroshxonaga Fotima kirdi va ko`k yog`och panjara ichida o`tirgan Zuhri ko`rib yuragi shig`etib ketdi. Shu gapda ham qo`llangan yuragi shig`etmoq iborasi frazeologik lug`atda “bir lahza ich – ichidan hayajonlanmoq” ma`nosida berilgan. 10) O`zimizning qishloqdan, fermada hayvonlar doktori, - dedi. Zuhra labini burdi. Ushbu gapdagi

labini burdi fe'l iborasi “ “ ma`nosida kelgan lekin bu ham frazeologik lug`atda ma`nosi keltirilmagan. 11) Fotimaning dami ichiga tushib ketdi. Ushbu gadagi qo`llangan dami ichiga tushmoq iborasi frazeologik lug`atda “qo`rquv aralash hech narsa deyolmay qolish” ma`nosida keltirilgan. 12) Zuhra kuyov shu ekanini bilib unga ko`z qirini tashladi, hindchasiga kaftlarini juftlab ta`zim qilib qo`ya qoldi. Ushbu gapdagi ko`z qirini tashlamoq iborasi frazeologik lug`atda “tez va sezilmas qaramoq” ma`nosida keltirilgan. Fikrim so`ngida shuni aytishim mumkinki iboralar nutqimizni boyitadigan, go`zallashtiradigan va tasirchanligini oshiradigan vositadir. Ayniqsa fe'l iboralarda baxt, sevgi, ajablanish, aql, chaqqonlik, ahmoqlik, badjahillik ya`ni insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari kuchliroq aks etadi.

### Foydalaningan adabiyotlar

- 1.S.Rahimov, B.Umarqulov “Hozirgi o`zbek adabiy tili “
- 2.A.E.Mamatov “Zamonaviy lingvistika “
- 3.B.To`xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodiva “ O`zbek tili o`qitish metodikasi “
- 4.Abduzohur Abduazizov “ Tilshunoslik nazariyasiga kirish “
5. Abdulla Qahhorning “Nurli cho`qqilar” asari